

FIRIBGARLIK JINOYATINING PREDMETI, OB'YEKTI VA JINOIY-HUQUQIY TAHLILI

*O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi
universiteti magistratura tinglovchisi Mirzaraximov
Zohirjon Ochilovich*

Annotatsiya: maqolada firibgarlik jinoyatlarining profilaktikasini tashkil etish faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, uning predmeti va ob'yekti haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: firibgarlik, jinoyat, bugungi kundagi holat, protsessual hujjatlar, mavjud muammo va kamchiliklar, takomillashtirish yo'nalishlari.

Aldash yoki ishonchni suiste'mol qilish yo'li bilan o'zganining mulkini yoki mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish haqida gapirilganda, eng avvalo, uning mazmunini tashkil etuvchi – «firibgarlik» atamasi bilan bog'liq bo'lgan ayrim tushunchalarni tahlil qilish zarur. «Firibgarlik» tushunchasini o'rganish jarayonida uni ta'riflashda quyidagi to'rt xil yondashuv mavjudligi kuzatildi:

Birinchi: O'zbek tilining izohli lug'atida «firibgarlik» tushunchasining lug'aviy ma'nosi quyidagicha izohlangan:

“Firibgarlik - aldamchilik, xiylagarlik” ma'nolarini bildiradi. Ikkinchi: Islomda - aldov, firibgarlik, birovni chuv tushurish, savdo-sotiqda aldamchilik kabi illatlar qoralangan. Xadisi sharifning rivoyatlarida “Kimki aldab firib bersa, bizdan emas!” deb keltirilgan.

Uchinchi: Firibgarlik jinoyati tushunchasi hamda uning uchun javobgarlik masalalari O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 168-moddasida nazarda tutilgan. Jinoiy-huquqiy tushunchada firibgarlik aldash yoki ishonchni suiste'mol qilish yo'li bilan o'zganining mulkini yoki o'zganining mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritishni anglatadi. Bunday qilmish uchun ozodlikdan mahrum qilishgacha bo'lgan jazo choralari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

To'rtinchi: Xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida firibgarlik tushunchasi yoritilgan:

Qonunga ko'ra, aldash yoki ishonchni suiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan xuquqni qo'lga kiritish firibgarlik deyiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" gi 2017 yil 11 oktyabr 35-sonli qarorida firibgarlikka quyidagicha ta'rif berilgan: "Firibgarlik o'zganing mulkini yoki mulkka bo'lgan xuquqini aldash yoki ishonchni suiste'mol qilish yo'li bilan haq to'lamay egallashda ifodalanib, buning ta'sirida mulk egasi yoki boshqa shaxs yoxud vakolatli xokimiyat organi mulkni yoki unga bo'lgan mulkni boshqa shaxsga beradi yoinki ushbu mulk yoki unga bo'lgan huquq boshqa shaxs tomonidan olib qo'yilishiga imkoniyat beradi".

Jinoyat kodeksining 168-moddasi dispozitsiyasiga muvofiq firibgarlikda aldash deganda, aybdor tomonidan, bila turib, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yolg'on ma'lumotlar xabar qilinishi yoki ish holati bo'yicha mulk egasi yoki boshqa shaxsga ma'lum qilinishi lozim bo'lgan haqiqiy faktlarni yashirish yoxud mulk egasi yoki boshqa shaxsni yanglishtirishga qaratilgan qasddan sodir etilgan harakatlar tushuniladi.

Firibgarlikda yolg'on ma'lumotlarga jabrlanuvchini yanglishtirishga olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday holatlar, jumladan, yuridik fakt va voqealar, mulkning sifati, narxi, aybdorning shaxsi, uning vakolati, niyati (masalan, aybdor shaxs o'zini mansabdor shaxs yoki huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi sifatida ko'rsatishi) taalluqli bo'lishi mumkin.

Firibgarlikda jabrlanuvchini yanglishtirishga qaratilgan qasddan sodir etiladigan harakatlar jumlasiga, masalan, bitim yoki to'lov predmetini soxtalashtirish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni o'ynash chog'ida aldov usullarini qo'llash kiradi.

Firibgarlikda aldash yoki ishonchni suiste'mol qilish mulkni yoki unga bo'lgan huquqni aybdor mulkdorligi yoki egaligiga ixtiyoriy ravishda beradigan aqli raso shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lishi shart. Aybdor tomonidan, bila turib, aqli noraso shaxsni yoki voqelik mohiyatini anglash qobiliyatiga ega bo'lmagan (masalan, o'ta yoshligi, ruhiy

jihtadan norasoligi alkogol, giyohvandlik vositasi yoki psixotrop modda ta'sirida og'ir darajada mastligi tufayli) shaxsni aldash va undan mulkni olish firibgarlik tariqasida emas, balki o'g'irlik sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim, chunki bunday hollarda shaxs mulk uning egaligidan chiqib ketayotganligini anglamaydi.

Mulkni egallashga qaratilgan firibgarlik, mazkur mulk aybdor yoki boshqa shaxslarning g'ayriqonuniy egaligiga o'tgan va ular undan xohlagan tarzda foydalanish yoki tasarruf etish real imkoniyatiga ega bo'lgan paytdan tugallangan deb topiladi. Qonunga ko'ra, shaxs bankdagi pul mablag'larini ular uning bankdagi hisobvaraqaasiga kelib tushgan (o'tkazilgan) paytdan boshlab real tasarruf qilish imkoniyatiga ega bo'lganligi tufayli, jinoyat bu mablag'lar ularni mablag' egasi hisobvaraqaasidan aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan olgan shaxsning yoki boshqa shaxsning bankdagi hisobvaraqaasiga o'tkazilgan paytdan tugallangan deb topish lozim.

O'zganing mulkiga bo'lgan huquqni egallashga qaratilgan firibgarlik aybdorda o'zganing mulkiga egalik qilish yoki tasarruf etish uchun yuridik jihatdan tasdiqlangan imkoniyat paydo bo'lgan paytdan (masalan, ko'chmas mulkka nisbatan mulk huquqi yoki qonunga muvofiq ro'yxatga olinishi shart bo'lgan boshqa mulkka nisbatan huquq ro'yxatga olingan paytdan; shartnoma tuzilgan vaqtdan; mulkka nisbatan shaxsning huquqi tan olingan sud qarori uchga kirgan kundan; vakolatli davlat organi aybdorda yoki boshqa shaxslarda mulkka nisbatan egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish uchun asoslar mavjudligi to'g'risida qaror qabul qilgan kundan) tugallangan hisoblanadi.

Firibgarlik o'zganing mulkini yoki mulkka blgan huquqini aldash yoki shonchni suiiste'mol qilish orqali haq to'lamay egallashda ifodalanib, buning natijasida mulk egasi yoki boshqa shaxs yoxud vakolatli xokimiyat organi mulkni yoki unga bo'lgan huquqni boshqa shaxsga eradi yoinki ushbu mulk yoki unga bo'lgan huquq boshqa shaxs omonidan olib qo'yilishiga imkon beradi.

Firibgarlik jinoyatining ob'ekti - o'zgalar mulki yoki mulkka o'lgan huquqini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar.

Firibgarlik jinoyatining predmeti: 1) o'zganing mulki; 2) o'zganing mulkiga bo'lgan huquq hisoblanadi. O'zganing mulkiga bo'lgan xuquq odatda turli xil hujjatlarda (masalan, mulkni tasarruf ilishga huquq beruvchi ishonchnomada) mustahkamlanadi.

Firibgarlik jinoyati ob'ektiv tomondan o'zganing mulkini qonunga xilof ravishda olish maqsadida qilingan aldov harakatlarida yoki shu maqsadda jabrlanuvchining ishonchini suiiste'mol qilgan olda mulkka bo'lgan huquqni qo'lga kiritishida namoyon bo'ladi.

Ishonchni suiiste'mol qilish, firibgarlikning ikkinchi shakli-ni tashkil qiladi. Ishonchni suiiste'mol qilish deganda aybdor tomonidan mulk egasi yoki mulkni uchinchi shaxslarga berib yuborish to'g'risida qaror qabul qilishga vakolatli bo'lgan boshqa shaxslar bilan bo'lgan ishonchli munosabatlardan g'arazli maqsadlarda foydalanishi tushunilishi lozim. Ishonchga turli holatlar, masalan, aybdor shaxsning xizmat mavqei yoki uning jabrlanuvchi bilan shaxsiy yoki qarindosh-urug'lik munosabatlari sabab bo'lishi mumkin.

Ishonchni suiiste'mol qilish mustaqil usul sifatida sodir etilgan firibgarlikda faol aldov (haqiqatni buzib ko'rsatish) ham, faol bo'lmagan aldov (haqiqatni yashirish) ham mavjud bo'lmasdan, faqat o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni suiiste'mol qilish holati mavjud bo'ladi.

O'zaro ishonch asosidagi munosabatlar natijasida mulk bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tkazilishi, ya'ni unga berib qo'yilishi va hujjatsiz, shunchaki ishonib topshirilishi mumkin.

Jabrlanuvchining aybdorga nisbatan ishonchli munosabatining mazmuni, xususiyati, manbai, sabablari, muddati va boshqalar sodir etilgan qilmishning baholanishiga ta'sir qilmaydi. Ishonchni suiiste'mol qilish orqali sodir etilgan firibgarlik paytida jabrlanuvchi va aybdor xizmatdosh, tanish, xizmat ko'rsatish munosabati bilan o'zaro aloqada bo'lgan shaxs va boshqalar bo'lishi mumkin.

Firibgarlik jinoyatining zaruriy belgisi mulkdorning o'z mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqini ixtiyoriy ravishda aybdorga topshirishidir.

Mulkni egallashga qaratilgan firibgarlik mazkur mulk aybdor yoki boshqa shaxslarning g'ayriqonuniy egaligiga o'tgan va ular undan xohlagan tarzda foydalanish yoki tasarruf etish uchun real imkoniyatga ega bo'lgan paytdan tugallangan hisoblanadi.

Qonunga ko'ra, shaxs bankdagi pul mablag'larini ular uning bankdagi hisobvarag'iga kelib tushgan paytdan boshlab amalda tasarruf qilish imkoniga ega bo'lganligi tufayli, jinoyat bu mablag'lar ularni mablag' egasining hisobvarag'idan aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan olgan shaxsning yoki boshqa shaxsning bankdagi hisobvarag'iga o'tkazilgan paytdan e'tiboran tugallangan deb topilishi lozim.

O'zganing mulkiga bo'lgan huquqni egallashga qaratilgan firibgarlik aybdorda o'zganing mulkiga egalik qilish yoki uni tasarruf etish uchun yuridik jihatdan tasdiqlangan imkoniyat paydo bo'lgan paytdan (masalan, ko'chmas mulkka nisbatan mulk huquqi yoki qonunga muvofiq ro'yxatga olinishi shart bo'lgan boshqa mulkka nisbatan huquq ro'yxatga olingan paytdan; shartnoma - tuzilgan vaqtdan; mulkka nisbatan shaxsning huquqi tan olingan sud qarori -kuchga kirgan kundan; vakolatli davlat organi aybdorda yoki boshqa shaxslarda mulkka nisbatan egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish uchun asoslar mavjudligi to'g'risida qaror qabul qilgan kundan) tugallangan hisoblanadi.

Sub'ektiv tomondan firibgarlik jinoyati tugri qasd bilan sodir etiladi. Jinoyatning sub'ekti 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxsdir.

Aksariyat huquqshunos olimlar huquqbuzarlikni kasallikka, huquqbuzar shaxsni bemorga qiyoslashadi va mazmunan ularni bir-biriga yaqin tushunchalar deb bilishadi. Darhaqiqat, penitensiar tizimda jazo huquqbuzar shaxsni jazolashga emas, balki axloqan tuzatishga xizmat qilishi lozim degan qarash mavjud. Tibbiyot sohasida esa bemorni ham jisman, ham ruhan sog'lomlashtirishga e'tibor qaratiladi.

SHuni ta'kidlab o'tish lozimki, huquqbuzarliklarning barcha sabab va sharoitlari kishilar psixologiyasi va ongiga ta'sir ko'rsatib, ularda g'ayriijtimoiy qarashlarni, xulq-atvorni shakllantiradi yoki ularni oziqlantiradi, kuchaytiradi. SHuning uchun ham huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlari hamma vaqt ijtimoiy psixologik xususiyatga ega. Ijtimoiy- psixologik sabab va sharoitlar ijtimoiy sharoitlardan kelib chiqqan bo'lib, ma'lum darajada mustaqildir

Adabiyotlar:

1. Khayitovich Y.D., Khurozovich N. E., Mamatovich K. K. Legal basis of solution of issues related to the citizenship of the republic of uzbekistan and prospects of their development //International Journal of Early Childhood Special Education. – 2022. – T. 14. – №. 6.
2. Tashtemirov A.A. Axborot texnologiyalari orqali sodir etilgan firibgarlik jinoyatlariga qarshi kurashishning huquqiy va tashkiliy jihatlari //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 14. – S. 320-327.

